

MAHALLA INSTITUTINING BOLA RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Bahronova Sabina Elmurod qizi

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Jovliyeva Dildora Ilhom qizi

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Bobomurodova Bibirobiya Bahrom qizi

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bola rivojlanishiga mahallaning ta'siri haqida fikr mulohaza olib borilgan. Mahalla sharqona, an'analar, urf-odatlar va marosimlarni jamoada amalga oshirib, avlodan avlodga yetkazib beradi. Kuchli jamiyatdan- kuchli davlat barpo qilishda mahallaning ham o'z o'rnini va majburiyatlari mavjud.

Kalit so'zlar: mahalla, bola, urf-odatlar, barkamol avlod, odob-axloq, tashkiliy ishlar, jamoa, ota-ona, obodonlashtirish, ijtimoiylashuv, xonadon, mehr-oqibat.

Mahalla instituti bir necha yillik tarixga ega bo'lsada, uning huquqiy asoslari yaratilgan va jamiyat boshqaruvida o'ziga xos vakolatlarga ega bo'lgan davr - mamlakatimizning mustaqillikka erishgan davri hisoblanadi. Chunki mustaqil O'zbekistonning bosh qomusi - Konstitutsiyaning 105-moddasiga mahalla institutining vakolatlari, majburiyatlari belgilab berildi. Ushbu qonun asosida 1993-yil 2-sentabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. 1999-yil 14-aprelda ushbu qonunning yangidan tahrirlandi. 2004-yil 29-aprelda "Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida qonun qabul qilindi va 2013-yil 22-aprelda yangidan tahrirlandi. Azal-azaldan mahalla tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, turmush va tafakkur tarzini ko'z qorachig'idek asrab avaylashda uning o'rnini va ahamiyati beqiyosdir. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mashhur olim Aleksis Tokvil talqinicha, fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Ularda o'zini o'zi boshqarish organlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omildir. "Mahalla" arabcha so'z bo'lib "xonadon" degan ma'noni anglatadi. Hozirgi kunda mahalla maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab bilan yaqin hamkorlik olib borib, ularga binolarni ta'mirlashga va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda yordam ko'rsatmoqda. Mahalla qo'mitasi majlislarida mahalla intizomining buzilishlari ham ko'rib chiqiladi. Yoshlarga ta'sir ko'rsatishning bu rasmiy tarmoqlardan tashqari, jamoani nazorat qilishning an'anaviy usuli ham saqlanib qolgan. Har qanday mahalla boy hayotiy tajribaga ega odamlar mavjud. Ularning asosiy vazifalari aholining an'anaviy axloq-odob qoidalariga rioya qilishlarini, bolalarning ko'chadagi yurish-turishini nazorat qilishdir. Ular har qanday

odamga tanbeh berishi mumkin, biroq bu ishni doimo ularning hurmatini saqlagan holda amalga oshiradilar. Shuning uchun: "Bir bolaga yetti ota-ona mahalla" deya bejizga aytilmagan.

Yoshlarni tarbiyalashda mahallaning vazifalari:

1. mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashishi va oqilona yechimlarini topishda faollik ko'rsatish;
2. ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralari ko'rish;
3. mahalla hududidagi o'quv tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni qo'llab quvvatlash;
4. ota onalar orqali tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob kabi xislatlarni singdirish va har tomonlama rag'batlantirish;
5. yoshlarni diniy mazhablar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishga ota onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'g'itlarni singdirib olishga jamoatchilikni safarbar etish;
6. mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to'garak va klublar faoliyatini tashkil etish;
7. turar joylarida, mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy -ommaviy va sport tadbirlari markazi mahalla bo'lishiga erishish.

Yuqorida keltirilganidek, mahalla azaliy udumlar, urf-odatlar va an'analariga tayangan holda ulkan ma'naviy tarbiya vazifasini bajaradi. Keksalarning pand-nasihatlari, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi orqali odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirilib boriladi.

Xulosa: qilib aytganda, yoshlarimizni yoshlarimizni ma'naviy yetuk bo'lib yetishishida oila va mahalla birdek ma'sul. Buning uchun birinchi navbatda ota-ona, mahalla bir jabhada yoshlarga ibrat, o'rnak bo'lishi lozim. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda oila va mahalla o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatsa, bu ikki tarbiya maskani ishida katta samaradorlikka erishishi mumkin. Oilada yoshlar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishda mahallalarning o'rni kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi/o'quv qo'llanma/-Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022.
2. Semenov V.D. Maktab va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri.-M., 1986.
3. Ziyonet.uz
4. Lex.uz